XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI
Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: sirdaryo@exat.uz

2022 - yil 1 - fevral VI-29-2-9-0-K/22 Sirdaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi 123-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 3-maydagi KQ-224-IV-qarorlariga asosan viloyatda mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘imni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi 123-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 3-maydagi KQ-224-IV-qarorlariga asosan, viloyat hokimligi huzurida tuzilgan mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘im miqdorini shakllantirish bo‘yicha ishchi guruh tomonidan bildirilgan takliflarni hamda Moliya vazirligining 2021-yil 18-oktabrdagi 03/06-01-32/1958-sonli xatini inobatga olgan holda, “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 3-maydagi “Mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘imni belgilash, uni to‘lash va hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi KQ-224-IV-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xo‘jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5890-sonli farmoni hamda viloyat hokimligi ishchi guruhi tomonidan shakllantirilgan takliflarni inobatga olib, viloyatda avtomobilga

yonilg‘i hamda gaz quyish stansiyalari tomonidan avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi, suyultirilgan va siqilgan gazni ohirgi iste’molchilarga realizatsiya qilishda yoqilg‘i birligi uchun mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirishga yig‘iladigan maxsus yig‘im miqdori maqullansin, bunda maxsus yig‘im miqdori avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gazning 1 litri uchun hamda siqilgan gazning 1 metr kubi uchun 25 so‘m etib belgilansin.

3. Maxsus yig‘imni yig‘ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 3-maydagi KQ-224-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshirilsin.

4. Sirdaryo viloyati Davlat soliq boshqarmasi (J.G‘oyibov):

maxsus yig‘imning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi va Sirdaryo viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasi huzuridagi “Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg‘armasi”ga belgilangan muddatlarda to‘lanishi ustidan nazorat olib borish;

maxsus yig‘imning hisobot shakli O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng soliq idoralari tomonidan belgilangan tartibda maxsus yig‘im to‘lovchilariga yetkazilishi hamda hisobotni taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kedeksiga muvofiq amalga oshirilishi inobatga olinsin.

5. Sirdaryo viloyati Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (D.Bozorov) Sirdaryo viloyati hokimligi Moliya bosh boshqarmasi huzuridagi “Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg‘armasi” bilan birgalikda mablag‘larning maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshirsin.

6. Viloyat hokimligi huzurida tuzilgan mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘im miqdorini shakllantirish bo‘yicha ishchi guruhga:

maxsus yig‘im miqdorini belgilash to‘g‘risidagi takliflarini har yili 1-martga qadar viloyat hokimligiga kelishish uchun kiritib borsin.

7. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Karimov), viloyat hokimining o‘rinbosari (A.Xojimatov) har yilgi mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘im miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda har yili 15-mayga qadar Xalq

deputatlari Sirdaryo viloyati kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritib borsin.

8. Maxsus yig‘im miqdorini belgilash to‘g‘risidagi qaror keyingi yil uchun maxsus yig‘im miqdorini belgilash va (yoki) bekor qilish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingunga qadar amal qilishi belgilab qo‘yilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Karimov, viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xojimatov va nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi U.Sotiboldiev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi raisi **G'.Mirzayev**